



SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 14-iyun

163-7-99-Q/24

Nurobod tuman hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 157-7-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Tuman hududida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish hamda ushbu qonun bilan belgilangan vazifalarning ijrosini so‘zsiz ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 157-7-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o‘rnatishga qaratilgan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi;

Qonun bilan o‘rnatilgan talablar va mexanizmlarni davlat organlari va tashkilotlarida samarali joriy etish, bu jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta’minlash hamda ular uchun zarur tushuntirish ishlarini olib borish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini mavofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xarita” tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi doirasida tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xarita” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov) va tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

Har chorakda tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holatlarni tahlil qilish;

xodimlar tomonidan ularning faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha cheklowlarga rioya etilishini o‘rganish, jumladan o‘rindoshlik asosida ishlash, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish kabi holatlarni aniqlash;

har yarim yilda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar tanqidiy muhokama qilib borilishini ta’minlash.

5. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov) bir oy muddatda tuman hokimligida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot ishlari hamda seminar-trening o‘tkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin .

Tuman hokimi



S.Berdikulov

Nurobod tuman hokimining
2024-yil 14-iyundagi
163-7-99-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi doirasida tumanda 2024-yil
amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan
“YO‘L XARITA”**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas’ul
1. (2-ilova 5-band)	Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini viloyat idoralararo komissiyasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat qilish sho‘basi”ga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Axborot- tahliliy ma’lumotnomma Amaliy chora- tadbirlar	2024- yil iyul 2024-yil oktabr	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov)
2. (2-ilova 6-band)	Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda viloyat idoralararo komissiyasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat qilish sho‘basi”ga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar	Axborot- tahliliy ma’lumotnomma Amaliy chora- tadbirlar	2024- yil iyul 2024-yil oktabr	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov)

	to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.			
3. (2-ilova 9-band)	<p>Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlardan ishdan bo‘sagan xodimning ikki yil ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda viloyat idoralararo komissiyasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat qilish sho‘basi”ga taqdim qilish.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	Axborot-tahliliy ma’lumotnomma Amaliy chora-tadbirlar	2024- yil iyul 2024-yil oktabr	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov)
4. (2-ilova 11-band)	<p>Xodim o‘z mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tuman hokimligi uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlarning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash va natijalarini viloyat idoralararo komissiyasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat qilish sho‘basi”ga taqdim qilish.</p> <p>Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	Axborot-tahliliy ma’lumotnomma Amaliy chora-tadbirlar	2024- yil iyul 2024-yil oktabr	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov)
5. (2-ilova	Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi	Axborot-	2024-yil	Tuman hokimligi

13-band	tashkilotlari xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	tahliliy ma’lumotnomma Amaliy chora-tadbirlar	iyul 2024-yil oktabr	tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Kilichov)
6. (2-ilova 17-band)	2023-yil davomida tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlarga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish.	Axborot-tahliliy ma’lumotnomma	2024-yil sentabr	Tuman hokimligi devonxona bo‘limi mudiri (Sh.Ibodullayev)
7. (2-ilova 24-band)	Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning tasdiqlangan namunaviy shakllarini tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlar veb-saytlariga joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil sentabr	Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev)
8. (2-ilova 29-band)	Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlar xodimlari ish stolida eslatma sifatida foydalanishi uchun manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko‘riladigan choralar bo‘yicha illyustrativ tarqatma materiallarni ishlab chiqish hamda tarqatish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil avgust	Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘yicha bosh mutaxassis (U.Toshtemirov)
9. (2-ilova 32-band)	Tuman hokimligi va hokimlik bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda davlat organlari va tashkilotlarining yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev),

	manfaatlar to‘qnashushi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilish.			tuman Adliya bo‘limi (N.Safarov)
--	--	--	--	-------------------------------------